



TO'RA SULAYMON IJODIDA DIALEKTIZMLARNING BERILISHI VA ULARNING LINGVOMADANIY IMKONIYATLARI

Xakimjonova Rashida Shavkat qizi

Guliston davlat universiteti

hakimjonovarashida@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17452218>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-oktabr 2025 yil
Ma'qullandi: 20-oktabr 2025 yil
Nashr qilindi: 27-oktabr 2025 yil

KEYWORDS

xalq og'zaki ijodi, folklor obrazlari, milliy tafakkur, lingvomadaniyat, pretsedent, pretsedent birliklar, pretsedent nomlar, antroposentrik, lingvomadaniy birliklar, lingvokulturologiya, metafora, metonimiya, mentalitet, mental.

ABSTRACT

Ushbu maqola tilshunoslikning lingvokulturologiya sohasiga bag'ishlangan bo'lib, shoir To'ra Sulaymon she'riyatidagi lingvokulturologik aspektlari, ya'ni shoirning she'rlarida qo'llangan dialektizmlar xususida, lingvomadaniyatshunoslik va etnolingvistika kabi jihatlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, To'ra Sulaymon she'riyatida lingvokulturologik birliklar nafaqat estetik maqsadga, balki milliy o'zlikni anglash va uni avlodlarga yetkazish vazifasiga xizmat qilishi ilmiy asosda yoritib berilgan.

Har bir xalqning tili uning milliy madaniyatini, qadriyatlarini va dunyoqarashini o'zida mujassam etadi. Shu bois tilshunoslikda til va madaniyat o'zaro uzviy bog'liq hodisalar sifatida o'rganiladi. Tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan biri bo'lgan lingvokulturologiya ana shu bog'liqlikni o'rganishga, til birliklarida xalq ruhiyati, urf-odatlar va milliy tafakkurini aks ettirishga qaratilgan.

O'zbek adabiyotida milliylik ruhini, xalqona ifodalarni va shevaga xos so'z boyligini o'z ijodida mahorat bilan qo'llagan ijodkorlar ko'p. Shulardan biri xalq shoirimiz To'ra Sulaymon bo'lib, uning asarlarida xalqona so'zlashuv, dialektal birliklar, maqol va iboralar orqali o'zbek xalqining hayoti, turmush tarzi, urf-odatlar, shuningdek, milliy dunyoqarashi yorqin ifodasini topgan.

Mazkur maqoladada To'ra Sulaymon she'riyatida dialektizmlarning berilishi va ularning lingvomadaniy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Dialekt so'zlarning badiiy matnda qo'llanish sabablari, ularning estetik, ma'naviy va madaniy yuklamalari o'rganilib, shoir ijodining milliy ruhini ochib berish maqsad qilingan.

To'ra Sulaymon "Boldizim" hazil she'rida:

Aylanay, bodom qovoq **boldizim-ov**,

Yarq etib ko'kda uchgan **yulduzim-ov**,

To'yingda o'ynab-kulib xizmat qilay,

Daryoda o'ynoqlagan **qunduzim-ov**.

Bir kezlar mehrim cheksiz oshirgansan,

Ulug'lab nomim, yo'g'im yashirgansan.

Yoningga qo'shiq izlab kelganimda,

Ko'klamda toshgan suvday toshirgansan[1].

Boldiz – “xotinning singlisi” (oz ishlatiladi). Boldiz boldan shirin (Maqol). Bu ot asli qadimgi turkiy tilde “kichik qarindosh” ma’nosini anglatgan bal sifatidan sifatidan –**ДЫЗ** qo’shimchasi bilan yasalgan deb taxmin qilinadi. (ЭСТЯ, II, 54); Mahmud Koshg’ariy bu so’zning xotinning singlisini anglatishini maxsus ta’kidlaydi (Девон, I, 426); o’zbek tilida **a** unlisi **â** unlilariga almashgan, **ы** unlisining qattqlik belgisi yo’qolgan: **бал + дыз = балдыз**[2].

Bodom qovoq boldizim-ov - bu misralarda bevosita shoirning qaynisinglisiga murojaatdir. Boldizim so’zi shevalarda xotinning singlisi degan ma’noni anglatadi. Bodom qovoq esa chiroyli, ko’zga ko’ringan, nozik tabiatli qiz obrazini beradi. Bu she’rda muallif qaynisinglisiga nafaqat mehr, balki unga bo’lgan chuqur hurmat va samimiy munosabatni ifodalagan. Bir kezlar mehrim cheksiz oshirgansan va Ulug’lab nomim, yo’g’im yashirgansan bu satrlar qaynisinglisining mehribon, vafodor, sir tutadigan inson bo’lganini ko’rsatadi. Bu rishta nafaqat oilaviy, balki do’stona va ruhan yaqin bo’lganini bildiradi. She’r samimiy, hayotiy va beg’ubor. Har bir obraz **qunduz, yulduz, suv** o’ziga xos iliqlik va xotira aksidir. Qaynisingilga she’r bag’ishlash adabiyotda kam uchraydi va shoir boldizini singlisiday qadrli ekanligi sezilib turadi.

Ranjima bu so’zimga, bovirimsan,

Yorqinim, yosh yuragim hovirisan.

Kelinchak bo’lib bugun o’tirishda,

Guldirab charaqlagan sovrimsan[3].

Bu she’r fonetik, leksik va semantik jihatdan o’zbek xalqining madaniy tafakkuri, dialektal lug’ati, ijtimoiy-urfdan kelib chiqqan tasavvurlari teran aks etgani ayon bo’ladi. Har bir misra ichida yashiringan xalqona ifoda, xalqning dunyoqarashi va estetik mezonlari aks ettiradi.

Ranjima bu so’zimga, bovirimsan so’zi o’zbek xalq og’zaki nutqida keng ishlatiladigan, xafa bo’lma, dilozor bo’lma ma’nolarini bildiruvchi so’z bo’lib, shoir bu yerda uni iltifot, mehr-oqibat mazmunida qo’llaydi. Uning lingvopragmatik funksiyasi xushmuomalalik va ehtiyotkorlik bildirishdir.

Bovurimsan so’zida esa dialektizm yaqqol namoyon bo’ladi. “Bovurim” (ba’zan bo’vurim, bovirim) mamlakatimiz hududidagi janubiy viloyatlarning lahjasiga mansub, senga suyanaman, mening suyaganim kabi yaqinlik ifodalovchi jumla. bu odatda turmushga chiqayotgan qizga, sevikli insonga, yaqin kishiga nisbatan qo’llanilib, yuksak mehr, suyanish, ishonch bildiradi. Bu yerda dialektik birlik faqat leksik emas, madaniy kod sifatida xizmat qiladi.

Yorqinim bu yerda ham xalqona atov vositalari ko’zga tashlanadi. Yorqin so’zi har doim nurli, yorug’ ma’nosida emas, balki metonimik tarzda inson sifatleri, his-tuyg’ularining ifodasi bo’lib xizmat qilmoqda. U orqali shoir yurak nurliligini, muhabbatni ifodalamoqda. Hovirisan yana bir muhim dialektal birlik.

Hovir yoki hovur so’zi lug’atlarda issiqlikdan ko’tarilgan yengil bug’ ma’nosini ifodalab keladi. Bu kabi so’zlar tilda mavjud semantik zarralarni ochadi, chunki u standart adabiy tilda hayajondasan deb berilgan bo’lar edi, lekin hovirisanda ko’proq sezgi, titroq, hadik mujassam.

Kelinchak o’zbek urf-odatlarida kelinchak so’zi nafaqat yangi kelgan kelinni, balki uning jamiyatdagi ijtimoiy holatini, e’tiborini, mas’uliyatini bildiruvchi ijtimoiy-etnografik leksikadir. O’tirishda xalqona ibora bo’lib, nikoh marosimlari doirasida, kelinning ilk marosimdagi

tantanali joy egallashi, o'zini ko'rsatishi, ya'ni uyga kirish, tanilishni bildiradi. Bu misrada milliy marosim madaniyati va til o'zaro uyg'unlashgan holda aks etgan.

She'r nafaqat poetik, balki lingvokulturologik material sifatida qadrlanadi, chunki o'tirish marosimiy, funksiyani bajaradi.

Guldirab charaqlagan sovirimsan bu misrada eng ko'p diqqatga sazovor bo'lgan so'z sovirimsan. Sovir so'zi Jizzax viloyati, Farg'ona vodiysi shevalarida ishlatiladi. U sovchi kelgan qiz, turmushga chiqqan kelin, ba'zan yangi kuyov tushgan qiz ma'nosida qo'llanadi. Etnografik jihatdan u turmush marosimi bilan bog'liq ayol obrazini ifodalaydi.

Guldirab charaqlagan birikmasi esa og'zaki nutqda qizil-yashil liboslar, taqinchoqlar, marosim bezaklari bilan bezatilgan kelin obrazini uyg'otadi. Bu yerda shoir vokal, akustik, vizual taassurotlarni birlashtirgan, ya'ni nafaqat ko'rinish, balki ovoz guldirash, charaqlash orqali holatni taqdim etgan.

Bu birikma xalq tili estetik mezonlariga suyanadi, ko'zni quvontiruvchi, yurakni to'lqinlantiruvchi go'zallik u inson go'zalligidan tashqari madaniy yuksaklikni ham bildiradi.

To'ra Sulaymonning ushbu to'rt qatorlik she'rida dialektal birliklar, xalqona iboralar, etnografik va lingvopoetik elementlar bir butun bo'lib uyg'unlashgan.

Dialektizmlar poetik matnda nafaqat uslubiy bezak, balki madaniy kodlarni ochuvchi lingvistik birliklar sifatida qatnashadi.

“Suyunboy Oqin” dostonida:

Chumchuqning yuragiday yuraging bor,

Quyoning suyagiday suyaging bor.

Qanday ona o'g'il deb tuqqan o'zi –

Ulma-qizning kinga ham keragi bor[4].

Ulma-qiz bu so'z adabiy tilga nisbatan xalq tilida, xususan janubiy viloyatlar Qashqadaryo, Surxondaryoda, shuningdek, qipchoq shevasidan faol foydalanadigan Jizzax viloyatining hududlarida keng ishlatiladigan ifodadir. U dialektal tusga ega bo'lgan baholovchi o'g'il- qiz leksemasining o'zgargan dialektal holatidir.

Berib qo'yar ko'rinish

Har zamonda bo'y qizlar.

Momo deydi: - Bek ayna,

Yaxshi o'tiringizlar[5].

Ushbu she'r parchasida xalq og'zaki nutqi, etnografizmlar, dialektal leksika va lingvokulturologik birliklar uyg'unligida yaratilgan poetik tasvir mujassam. Misralarda dialektal-etnografik birlik sifatida muhim: u katta yoshli ayol tilidan murojaat qilinmoqda. Momo, ayna, o'tiringizlar so'zlari orqali dialektizmlarni ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bo'y qizlar –o'zbek xalqining madaniy qarashida muhim o'rin tutadi. Bo'y qiz atamasi nikoh yoshiga yetgan, hushfe'l, odobli, jamiyat nigohida qadrlanadigan yosh qiz obrazini ifodalaydi.

Xulosa. To'ra Sulaymon ijodi o'zbek adabiyotida xalqona ruh, milliy tafakkur va jonli so'z boyligini mujassam etgan asarlari bilan alohida o'rin tutadi. Shoir asarlarida dialektizmlarning qo'llanishi bejiz emas, ular nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki xalq madaniyati, turmush tarzi va milliy ruhining til orqali namoyon bo'lishidir.

Dialekt so'zlar shoirning til boyligini kengaytiradi, obrazlarni tabiiy va hayotiy ko'rsatadi, asarlarga milliy kolorit, xalqona ohang bag'ishlaydi. To'ra Sulaymon ularni mahorat bilan

qo'llab, har bir dialektizmni kontekstga mos holda ishlatadi, natijada o'qirman nafaqat asar mazmunini, balki o'zbek xalqining urf-odatlari, dunyoqarashi va ruhiyatini ham his etadi.

Lingvomadaniy nuqtayi nazardan qaraganda, shoir asarlaridagi dialektizmlar milliy qadriyatlar, mintaqaviy xususiyatlar va madaniy merosni til orqali ifodalash imkonini beradi. Ular o'zbek adabiy tili taraqqiyotida xalq tili bilan adabiy tilning o'zaro ta'sirini, shuningdek, milliy identifikatsiyaning shakllanish jarayonini yoritadi.

Shunday qilib, To'ra Sulaymon ijodidagi dialektizmlar shunchaki leksik hodisa emas, balki xalq ruhiyatining badiiy in'ikosi, o'zbek tilining boy ifoda imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim lingvomadaniy hodisa sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'ra Sulaymon. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 2020.-65-bet.
2. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. –Тошкент: Университет, 2000. 57-бет.
3. To'ra Sulaymon. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 2020.-65-bet.
4. To'ra Sulaymon. "Tanlangan asarlar". – Toshkent, 2020. – 287-bet.
5. To'ra Sulaymon. "Tanlangan asarlar". – Toshkent, 2020. 22-bet.



INNOVATIVE
ACADEMY